O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TOSHKENT VILOYATI HOKIMINING QARORI

2022 - yil 21 - iyul 427-10-0-Q/22 Toshkent viloyati hokimiligi

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 8-iyuldagi 377-sonli qarori to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasida yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l-transport hodisalarining oldini olish, huquqbuzarliklarni o‘z vaqtida aniqlash va ularga barham berishni ta’minlaydigan yo‘l harakatini avtomatlashtirilgan tartibga solish tizimini kengaytirish bo‘yicha ichki ishlar organlari faoliyatining sifat jihatidan yangi tartibi belgilandi.

Mazkur yo‘nalishdagi ishlarni yanada jadallashtirish, yo‘l harakatini tashkil etish sohasiga zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etish, shuningdek, yo‘l harakati barcha ishtirokchilarining xavfsiz harakatlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 25-moddalariga asosan maqsadida **qaror qilaman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 8-iyuldagi 377-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi yo‘l xavfsizligini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 19-maydagi 377-sonli qaroriga muvofiq faoliyat ko‘rsatayotgan yo‘l-patrul xizmati statsionar postlarida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish orqali ushbu maskanlarda inson omilini cheklagan holda transport vositalarining to‘siqsiz harakatlanishini ta’minlash bo‘yicha «Yashil» va «Qizil» yo‘lak tizimini (keyingi o‘rinlarda — «Yashil» va «Qizil» yo‘lak tamoyili) bosqichma-bosqich joriy etish to‘g‘risidagi taklifi ma’qullanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

Bunda, yo‘l-patrul xizmati statsionar postlarida tashkil etiladigan:

«Yashil» yo‘lakdan — belgilangan qoidalarga rioya etadigan va huquqbuzarlik sodir etmagan transport vositalari haydovchilari hech qanday to‘siqsiz va cheklovlarsiz harakatlanadi;

«Qizil» yo‘lakdan — qidiruvda bo‘lgan, sug‘urta polisining muddati o‘tgan, belgilangan muddatda texnik ko‘rikdan o‘tmagan, vazn va hajm parametrlarini buzib harakatlanayotgan yoki yo‘l harakati qoidalarini buzganlik uchun o‘z vaqtida to‘lanmagan jarimasi mavjud bo‘lgan transport vositalari harakatlanadi.

3. Quyidagilarni nazarda tutuvchi Yo‘l-patrul xizmati statsionar postlarida «Yashil» va «Qizil» yo‘lak tamoyili asosida harakatlanish tartibini joriy etish to‘g‘risidagi nizom 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin:

«Yashil» va «Qizil» yo‘lak tamoyili asosida yo‘l-patrul xizmati statsionar postlarining faoliyatini tashkil etish tartibi;

avtotransport vositalarining yo‘l-patrul xizmati statsionar postlarida «Yashil» va «Qizil» tamoyili asosida tashkil etiladigan yo‘laklar orqali harakatlanish tartibi;

postlarga xizmatni o‘tash uchun jalb etiladigan yo‘l-patrul xizmati xodimlarining asosiy huquq va majburiyatlari;

postlarga transport vositasida harakatlanib kelgan haydovchining huquq va majburiyatlari;

postlar faoliyati ustidan nazorat qilish tartibi.

4. Belgilansinki, 2022-yil 1-dekabrdan boshlab «Yashil» va «Qizil» yo‘lak tamoyili Toshkent viloyati Ohangaron tumanida joylashgan «Chinor» postida hamda 2-ilovadagi jadvalga muvofiq bosqichma-bosqich respublikaning qolgan yo‘l-patrul xizmati statsionar postlarida joriy etiladi.

5. Viloyat Ichki ishlar bosh boshqarmasi:

Viloyat axborot texnologiya va kommunikatsiyalarni rivojlantirish boshqarmasi bilan birgalikda ikki oy muddatda «Yashil» va «Qizil» yo‘laklar tizimini joriy etish bo‘yicha texnik hujjatlarni ishlab chiqib, belgilangan tartibda tasdiqlasin hamda 2022-yil 1-noyabrga qadar tizimning ishga tushirilishini ta’minlasin;

Viloyat transport boshqarmasi, moliya bosh boshqarmasi, viloyat axborot texnologiya va kommunikatsiyalarni rivojlantirish boshqarmasi hamda boshqa manfaatdor tashkilotlar bilan birgalikda 2022-yil yakuniga qadar transport oqimini hisoblash, tirbandliklarning oldini olish, qidiruvda bo‘lgan va olib qochilgan transport vositalarining harakatlanish yo‘nalishini aniqlash hamda transport vositalari

to‘g‘risidagi ma’lumotlarni masofadan uzatish imkoniyatini o‘z ichiga olgan radiochastotalardan foydalangan holda kontaktsiz ma’lumotlar almashinuvi texnologiyasining jahon tajribasini o‘rganib chiqsin va belgilangan tartibda viloyat hokimligiga takliflar kiritsin.

6. Shahar va tuman hokimliklari ichki ishlar bosh boshqarmasi bilan birgalikda mazkur qarorga 2-ilovada ko‘rsatilgan yo‘l-patrul xizmati statsionar postlariga tutash hamda ular atrofidagi bo‘sh turgan va zahiraga olingan qishloq xo‘jaligida foydalanilmaydigan er uchastkalarini ushbu postlarda zarur inshootlarni barpo etish va jihozlash maqsadida tegishli ichki ishlar organlari murojaatiga asosan ularga doimiy foydalanish huquqi bilan ajratilishini ta’minlash yuzasidan viloyat hokimligiga taklif kiritsin.

7. Yo‘l-patrul xizmati statsionar postlarida «Yashil» va «Qizil» yo‘lak tizimini joriy etish bilan bog‘liq xarajatlar O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining byudjetdan tashqari mablag‘lari, xalqaro moliya institutlari, xorijiy tashkilotlar hamda donor mamlakatlar kreditlari va grantlari, shuningdek, qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshirilishi;

Vazirlar Mahkamasining «Yo‘l harakati xavfsizligi sohasidagi huquqbuzarliklarga qarshi kurashish samaradorligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» 2018-yil 20-sentyabrdagi 747-sonli qaroriga 3-ilovaga muvofiq qo‘shimchalar kiritilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

8. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari Sh.Mahmudov zimmasiga yuklansin.

Toshkent viloyati hokimi v.b. **Z.Mirzayev**

Toshkent viloyat hokimining
2022 yil 21 iyuldagi
427-10-0-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Yo‘l-patrul xizmati statsionar postlarida «Yashil» va «Qizil» yo‘lak tamoyili asosida harakatlanish tartibini joriy etish to‘g‘risida

NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1.Ushbu Nizom avtotransport vositalarining yo‘l-patrul xizmati statsionar postlari (keyingi o‘rinlarda — postlar)da tashkil etilgan «Yashil» va «Qizil» yo‘lak tamoyili asosida harakatlanishi tartibini belgilaydi.

2. Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

yorug‘lik diodli ekran — LED displey, vizual ma’lumotlarni ko‘rsatish va uzatish uchun qurilma (displey, monitor, televizor, elektron tablo);

«Qizil» yo‘lak — qidiruvda bo‘lgan, texnik ko‘rikdan o‘tmagan, sug‘urta polisi muddati o‘tgan, vazn va hajm parametrlarini buzib harakatlangan yoki yo‘l harakati qoidalarini buzganlik uchun jarima solish haqida qaror chiqarilgan kundan e’tiboran oltmish kun ichida to‘lanmagan jarimasi mavjud transport vositalari harakatlanishi shart bo‘lgan harakatlanish bo‘lagi;

qarzdorlik — yo‘l harakati qoidalarini buzganlik uchun jarima solish haqida qaror chiqarilgan kundan e’tiboran oltmish kun ichida to‘lanmagan jarima;

post — yo‘l-patrul xizmati xodimlarining xizmat ko‘rsatish, tezkor-texnik va maxsus vositalar, muhandislik va boshqa tuzilmalar bilan jihozlangan joy;

harakatlanish bo‘lagi — avtomobillarning bir qator bo‘lib harakatlanishi uchun etarlicha keng bo‘lgan, yo‘l chiziqlari bilan belgilangan yoki belgilanmagan yo‘l qatnov qismining har qanday bo‘ylama bo‘lagi;

foto va video qayd etish qurilmasi — yo‘l harakati qoidalari buzilishini maxsus avtomatlashtirilgan foto va video texnika vositalari yordamida qayd etuvchi qurilma;

«Yashil» yo‘lak — «Qizil» yo‘lak orqali harakatlanish shartligini ko‘rsatuvchi alomatlari bo‘lmagan transport vositalarining harakatlanishiga ruxsat beriladigan harakatlanish bo‘lagi.

3. Postlarda o‘rnatilgan tartib xorijiy transport vositalariga ham tatbiq

etiladi.

2-bob. «Yashil» va «Qizil» yo‘lak tamoyili asosida postlarning faoliyatini tashkil etish

4. Transport vositalarining harakati foto va video qayd etish qurilmalari orqali qayd qilinib, haydovchilarga yorug‘lik diodli ekran orqali ishora berish yo‘li bilan tartibga solinadi.

5. Yorug‘lik diodli ekranda aks ettirilmagan yoki «Yashil» yo‘lak bo‘ylab harakatlanish haqida ishora berilgan transport vositalari «Yashil» yo‘lak bo‘ylab to‘siqsiz harakatlanadi.

6. «Qizil» yo‘lakdan harakatlanishi buyurilgan transport vositalari bo‘yicha harakat qatnashchilarining hujjatlari elektron ma’lumotlar bazasidan foydalangan holda tekshiriladi, aniqlangan qarzdorliklar bo‘yicha postlarda tashkil etilgan bank terminallari orqali qarzdorlik bo‘yicha to‘lov amalga oshirilganidan so‘ng, ularning harakatini davom ettirishga ruxsat berish choralari ko‘riladi.

Qarzdorlik to‘lanmagan hollarda transport vositalari O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi 291-moddasi hamda Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 25 maydagi 149-son qarori bilan tasdiqlangan Qonunchilik hujjatlari buzilganligi uchun ushlangan transport vositalarini maxsus to‘xtash joylariga olib kelish, joylashtirish va saqlash tartibi to‘g‘risidagi nizomga muvofiq maxsus to‘xtash joylariga joylashtiriladi.

Texnik ko‘rikdan o‘tmagan, sug‘urta polisi muddati o‘tgan transport vositalari yuzasidan ma’muriy bayonnoma tuzilgandan so‘ng, vazn va hajm parametrlarini buzib harakatlangan transport vositalari bo‘yicha esa vazn va hajm parametrlari tegishli normaga moslashtirilgan taqdirda ularning harakatini davom ettirishga ruxsat beriladi.

Vazn va hajm parametrlarini buzib harakatlangan transport vositalari bo‘yicha vazn va hajm parametrlarini tegishli normaga moslashtirilmagan yoki ob’ektiv sabablarga ko‘ra buning imkoni bo‘lmagan taqdirda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ushlab turish choralari ko‘riladi.

Qidiruvda bo‘lgan transport vositalari aniqlanganda, ushbu transport vositalari darhol maxsus to‘xtash joylariga joylashtiriladi.

7. Qarzdorlik aniqlangan transport vositalariga quyidagi hollarda harakatni davom ettirishga ruxsat etiladi:

transport vositasi to‘xtatilgan vaqtdan e’tiboran ko‘pi bilan 30 daqiqa ichida qarzdorlikka oid batafsil ma’lumot olish imkoniyati bo‘lmasa yoxud postlarda tashkil etilgan bank terminallari ishlamayotgan yoki aniqlangan qarzdorliklar bo‘yicha to‘lovni qonun hujjatlarida belgilangan boshqacha tartibda amalga oshirish imkoniyati bo‘lmagan hollarda;

aniqlangan qarzdorliklarga asos bo‘lgan qoidabuzarliklar yuzasidan sudga murojaat qilingan yoki ish sudda ko‘rilayotgan hollarda (bundan ish yuzasidan sudning qarori qonuniy kuchga kirgan hollar mustasno);

transport vositasida shoshilinch tibbiy yordamga muhtoj shaxs bo‘lganda;

favqulodda vaziyatlar (tabiiy ofat, texnogen halokat, yong‘in)da yuk yoki odamlarni tashish hollarida;

transport vositasi marhumni tashish uchun foydalanilayotgan yoki dafn marosimida ishtirok etayotgan hollarda.

3-bob. Postlarga xizmatni o‘tash uchun jalb etiladigan yo‘l-patrul xizmati xodimlarining huquq va majburiyatlari

8. Postlarda xizmat o‘tayotgan yo‘l-patrul xizmati xodimlari quyidagi huquqlarga ega:

«Qizil» yo‘lak bo‘ylab harakatlanishi lozim bo‘lgan transport vositalari yuzasidan qonun hujjatlarida belgilangan choralarni ko‘rish;

«Qizil» yo‘lak bo‘ylab harakatlanishi lozim bo‘lgan, biroq axborot ishora belgilariga rioya qilmagan transport vositalarini to‘xtatish choralarini ko‘rish.

9. Yo‘l-patrul xizmati xodimlari quyidagilarga majbur:

hududiy ichki ishlar organlari navbatchilik qismi va markaziy axborot dispetcherlik xizmati — axborot dispetcherlik xizmati (keyingi o‘rinlarda — MADX-ADX) bilan doimiy aloqada bo‘lish;

postlarda mavjud yorug‘lik diodli ekran yordamida, transport vositalarini qizil va yashil yo‘laklar bo‘ylab to‘g‘ri harakat qilib kelayotganligini nazorat qilish;

axborot ishora belgilari yoki yorug‘lik diodli ekranda namoyon bo‘lgan ma’lumotlarga amal qilmasdan harakatlanishi kerak bo‘lgan yo‘lakda harakatlanmagan transport vositasini o‘rnatilgan tartibda tegishli ishora berish yo‘li

bilan to‘xtatish;

postlarda mavjud texnik jihozlarning soz holda ishlashini muntazam ravishda nazorat qilish;

texnik jihozlarda nosozliklar aniqlangan taqdirda, ularni zudlik bilan bartaraf etish choralarini ko‘rish;

postlardan «Qizil» yo‘lak bo‘ylab o‘tgan transport vositalari bo‘yicha kunlik hisobotni yuritish va qo‘llanilgan choralar bo‘yicha ma’lumotni hududiy yo‘l harakati xavfsizligi xizmatlariga yuborish.

4-bob. Postlarga transport vositasida harakatlanib kelgan haydovchining huquq va majburiyatlari

10. Postlarga transport vositasida harakatlanib kelgan haydovchilar quyidagi huquqlarga ega:

yorug‘lik diodli ekran orqali qizil yo‘lakdan harakatlanish buyurilganligi asoslari to‘g‘risida tushuntirish berilishini talab qilish;

aniqlangan kamchiliklar va qarzdorliklar bilan bog‘liq ma’lumotlar bilan tanishish;

yo‘l quyilgan kamchiliklar va qarzdorliklar yuzasidan tushuntirishlar berish;

mavjud qarzdorlik yoki transport vositasi qidiruvda ekanligi munosabati bilan maxsus to‘xtash joyiga joylashtirilganligi yuzasidan yuqori turuvchi organ (mansabdor shaxs)ga yoki sudga shikoyat qilish.

11. Postlarga transport vositasida harakatlanib kelgan haydovchi axborot ishora belgilari yoki yorug‘lik diodli ekranda namoyon etilgan ma’lumotlardagi ishoralarga so‘zsiz rioya qilishga majbur.

5-bob. Postlar faoliyati ustidan nazorat

12. Postlarning faoliyati ustidan nazorat bevosita O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Jamoat xavfsizligi departamenti Yo‘l harakati xavfsizligi xizmati tomonidan olib boriladi.

13. Postlarda xizmat olib borayotgan yo‘l-patrul xizmati xodimlari tomonidan taqdim etilgan kunlik ma’lumot hududiy yo‘l harakati xavfsizligi xizmatlari tomonidan umumlashtirilib, avtomatlashtirilgan ma’lumotlar bazasi

bilan solishtiriladi va oylik hisobot yuritiladi.

Oylik hisobot bevosita O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Jamoat xavfsizligi departamenti Yo‘l harakati xavfsizligi xizmatiga taqdim etiladi.

6-bob. Yakunlovchi qoidalar

14. Haydovchilar postlarga xizmatni o‘tash uchun jalb etiladigan yo‘l-patrul xizmati xodimlarining xatti-harakatlari yuzasidan qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda shikoyat qilishlari mumkin.

15. Mazkur Nizom talablarini buzgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.

Toshkent viloyat hokimining
2022 yil 21 iyuldagi
427-10-0-Q/22-son qaroriga
2-ilova

Yo‘l-patrul xizmati statsionar postlarida «Yashil» va «Qizil» yo‘lak tamoyilini bosqichma-bosqich joriy etish

JADVALI

T/r	**YPX statsionar posti nomi**	**Hudud nomi**	**YPX statsionar posti joylashgan manzil**	**Rekonstruksiya qilish, qurish** (bitkazish muddati)
I-bosqich				
1.	«Chinor» YPX statsionar posti	Toshkent viloyati	A373 «M39 avtoyo‘li-Guliston-Bo‘ka-Angren-Qo‘qon va Andijon orqali-O‘sh» avtomobil yo‘lining 199-kilometrida, Ohangaron tumani	dekabr 2022 yil
II-bosqich				
2.	«Oybek» YPX statsionar posti	Toshkent viloyati	4R20 «Qorasuv-Bo‘ka-Bekobod» avtomobil yo‘lining 63-kilometrida, Bekobod tumani	

Toshkent viloyat hokimining
2022 yil 21 iyuldagi
427-10-0-Q/22-son qaroriga
3-ilova

Vazirlar Mahkamasining «Yo‘l harakati xavfsizligi sohasidagi huquqbuzarliklarga qarshi kurashish samaradorligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» 2018-yil 20-sentyabrdagi 747-son qaroriga kiritilayotgan qo‘shimchalar

1. 4-bandning «a» kichik bandi to‘rtinchi xatboshisi «rag‘batlantiriladi» so‘zidan keyin «O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi hamda Milliy gvardiyasining xizmat avtotransport vositalariga o‘rnatilgan videoregistratorlar orqali qayd etilgan huquqbuzarliklar bundan mustasno» so‘zlari bilan to‘ldirilsin.

2. Ilovaning 11-bandi birinchi xatboshisi «rag‘batlantiriladi» so‘zidan keyin «O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi hamda Milliy gvardiyasining xizmat avtotransport vositalariga o‘rnatilgan videoregistratorlar orqali qayd etilgan huquqbuzarliklar bundan mustasno» so‘zlari bilan to‘ldirilsin.